



GEOGRAFIK KO'RSATKICHLAR XALQARO MUHOFAZASI

Ochilova Zilola Joxan qizi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Intellektual mulk markazi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14811019>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Yanvar 2025 yil
Ma'qullandi: 28-Yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 31-Yanvar 2025 yil

KEYWORDS

geografik ko'rsatkich, tovar kelib chiqqan joy nomlari, chet el geografik ko'rsatkichlari, Yevropa ittifoqi, WIPO (Butunjahon intellektual mulk tashkiloti), Lissabon tizimi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada geografik ko'rsatkichlar tushunchasi, geografik ko'rsatkichlar bilan tovar kelib chiqqan joy nomlarining farqli va o'xshash jihatlari, geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish, shuningdek, geografik ko'rsatkichlar xorijiy muhofazasi, geografik ko'rsatkichlarning ro'yxatdan o'tishini va muhofazasini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar o'z tahlilini topgan.

Geografik ko'rsatkich bu ma'lum bir geografik kelib chiqishi bo'lgan va shu kelib chiqishi tufayli sifat yoki obro'ga ega bo'lgan mahsulotlarda qo'llaniladigan belgi hisoblanadi. Geografik ko'rsatkich sifatida ishlashi uchun belgi mahsulotning ma'lum bir joyda ishlab chiqarilganligini aniqlashi kerak, ya'ni geografik ko'rsatkichlar muayyan hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati, obro'si va kelib chiqishini himoya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular iste'molchilarni chalg'ituvchi mahsulotlardan himoya qilish, ishlab chiqaruvchilarga esa o'z mahsulotlarini bozorda yaxshiroq himoya qilish imkonini beradi. Geografik ko'rsatkichlarning xalqaro darajada muhofaza qilinishi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, vino, spirtli ichimliklar va hunarmandchilik mahsulotlari uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, mahsulotning sifatlari, xususiyatlari yoki obro'si asosan ishlab chiqarilgan joy bilan bog'liq bo'lishi kerak. Sifatlar ishlab chiqarishning geografik joyiga bog'liq bo'lganligi sababli, mahsulot va uning dastlabki ishlab chiqarilgan joyi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Geografik ko'rsatkichlarning asosiy tarkibiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- Mahsulotning nomi;
- Uning geografik hududga bog'liqligi;
- Mahsulotning sifati yoki xususiyatlari shu hududga xos ekanligi.

Yuqoridagi tarkibiy elementlardan ko'rinib turibdiki, geografik ko'rsatkichlar ishlab chiqariladigan tovarning avvalo nomida o'z aksini topadi, shuningdek, albatta, u mahsulot nomini o'z ichiga olishi uchun o'sha mahsulot ishlab chiqarilgan hududga bog'liq bo'ladi va uning o'ziga xosligi bo'lsa, faqatgina ushbu hududda ishlab chiqarilishi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qonunida belgilanishicha, tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida

identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deb e'tirof etilib, unda tovarning sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari uning geografik jihatdan kelib chiqishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi, ya'ni qonunchiligimizga ko'ra geografik ko'rsatkich deb mahsulot yaratilishi uchun u ishlab chiqariladigan geografik hududga bog'liq bo'lishi nazarda tutilgan, shuningdek, qonunga ko'ra mazkur geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarishning tovarning xususiyatlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bosqichlaridan loqal bittasi amalga oshirilishi zarurligi belgilangan. Demak, geografik ko'rsatkich deb topilishi uchun tovar ushbu geografik hududda butunlay emas, balki ishlab chiqarishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan jarayonlardan biri aynan shu hududda amalga oshirilishi zarur.

Geografik ko'rsatkichlarning xalqaro himoyasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Jahon savdo tashkiloti (JST) doirasida JSTning 1994-yildagi Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha bitimi (TRIPS) geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish bo'yicha asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. TRIPSning 22-24-moddalarida geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish talablari ko'rsatilgan. Shuningdek, 2015-yili qabul qilingan Kelib chiqqan joy nomi va geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi Lissabon bitimining Jeneva akti esa ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus xalqaro shartnomalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, geografik ko'rsatkich – tovarning muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan mahsulot sifatidagi identifikatsiyalovchi belgi hisoblanadi. Umuman olganda, geografik ko'rsatkichlar tovarlarning kelib chiqish joyi nomidan iborat bo'ladi. Misol uchun, geografik ko'rsatkichlardan biri bo'lgan "Rokfor" deyilganda faqat Fransiyaning ma'lum bir viloyatida ishlab chiqarilgan pishloq tushuniladi. Chet eldagi geografik ko'rsatkichlarga misol qilib, "Swiss" (soatlar), "Feta" (pishloq) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Qo'mita ekspertlari mamlakatimizda ham ma'lum bir hududga xos mahsulotlar, ayniqsa qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohasidagi mahsulotlarni ommalashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi, biroq, tovar kelib chiqqan joy nomlariga bo'lgan qat'iy talablar sababli mintaqaviy brendlar yetarli darajada rivojlanmaganligini alohida qayd etadilar.

Ta'kidlab o'tish lozimki, Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarda 3000 dan ortiq, Rossiya Federatsiyasida 230 dan ortiq geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari ro'yxatdan o'tkazilgan. Bundan tashqari, Ispaniyada birgina go'sht bo'yicha 16 ta geografik ko'rsatkich, Gruziyada esa vino bo'yicha 20 ga yaqin geografik ko'rsatkichlar ro'yxatdan o'tkazilgan.

Chet eldagi geografik ko'rsatkichlarga misol qilib "Switzerland" yoki "Swiss" (soatlar), "Feta" (pishloq), "Gorgonzola" (pishloq), "Mozarella di Bufala" (pishloq), "Gouda Holland" (pishloq), "Vodka of Finland" (aroq), "Irish Whiskey" (viski), "Scotch Whisky" (viski), "Champagne" (vino), "Kubanskiy kartofel", "Tulskiy samovar" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shu o'rinda mahalliy tadbirkorlik subyektlar geografik ko'rsatkich bilan belgilangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin. Sababi O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida geografik ko'rsatkichlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan noyob mahsulotlar mavjud. "Chust pichog'i", "Buxoro gilami", "Baxmal olmasi", "Mirzacho'l qovuni", "Samarqand noni", "Qashqadaryo tandir go'shti", "Parkent uzumi", "Qo'qon gilosi" va shu kabi tovarlar O'zbekistondan tashqarida ham ilgari mashhur hamda iste'molchilar ushbu tovarlarning sifati va nom qozonganligi uchun juda qadrlaydi.

Geografik ko'rsatkichda esa aksincha, u aniq bir shaxsga tegishli bo'lmasdan undan foydalanish huquqi xuddi shu geografik obyektida joylashgan (Fuqarolik kodeksining 46-moddasiga muvofiq yuridik shaxsning joylashgan yeri u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy) va xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin. Bunda geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'z huquqini boshqa shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi.

Geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlar quyidagicha:

O'xshash jihatlar:

1. Hududga bog'liqlik – Ikkalasi ham ma'lum bir geografik hudud bilan bog'liq bo'ladi.
2. Mahsulot sifati yoki xususiyatlari – Mahsulotlarning sifati yoki xususiyatlari ko'pincha shu hududning tabiiy sharoiti yoki ishlab chiqarish an'analariga bog'liq bo'ladi.
3. Huquqiy himoya – Ko'pchilik mamlakatlarda geografik ko'rsatkichlar ham, kelib chiqqan joy nomlari ham huquqiy himoyaga ega bo'lishi mumkin.

Farqli jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, aniqlik darajasi bo'yicha geografik ko'rsatkichlar muayyan hududga xos bo'lgan, u yerda ishlab chiqarish an'anaviy yoki qonuniy tartibda bo'lishi kerak, tovar kelib chiqqan joy nomlari bo'lsa, oddiygina mahsulotning qayerdan kelganini bildiradi.

Mahsulot sifat jihatidan geografik ko'rsatkichlar geografik joyning iqlimi, tuprog'i, urf-odatlarini mahsulot sifatiga ta'sir qiladi, tovar kelib chiqqan joy nomlarida esa bu talab mavjud emas, faqat ishlab chiqarish joyini ko'rsatadi.

Huquqiy maqomi jihatidan geografik ko'rsatkichlar rasmiy davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi mumkin va intellektual mulk himoyasiga ega, tovar kelib chiqqan joy nomlarida odatda huquqiy himoya talab qilinmaydi.

Ularga misol keltiradigan bo'lsak, "Roquefort" pishlog'i (Fransiya), "Buxoro gilami" (O'zbekiston) geografik ko'rsatkichlar hisoblanadi, "Made in Italy", "China Product" tovar kelib chiqqan joy nomlariga misol bo'la oladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Geografik ko'rsatkichlar mahsulotning sifatini va o'ziga xosligini belgilab, ma'lum bir hudud bilan bog'langan bo'ladi. Tovlar kelib chiqqan joy nomlari – mahsulotning qayerda ishlab chiqarilganini bildiradi, lekin uning sifati yoki maxsus xususiyatlarini kafolatlamaydi. Bu farqlar mahsulotlarning bozordagi imidjini va iste'molchilarga ta'sirini belgilab beradi.

WIPO TOMONIDAN GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARNING MUHOFAZA QILINISHI

Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) geografik ko'rsatkichlar (GK) va kelib chiqish nomlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tizimlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirishga ko'maklashadi. Bu himoya iste'molchilarni chalg'ituvchi soxtalashtirishlardan saqlash, adolatli savdo muhitini yaratish va mahalliy mahsulotlarning qadrini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Geografik ko'rsatkich – bu mahsulotning muayyan geografik hududdan kelib chiqishini bildiruvchi belgi bo'lib, uning sifati, obro'si yoki boshqa xususiyatlari aynan shu hudud bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Roquefort pishlog'i (Fransiya), Darjeeling choyi (Hindiston) yoki Qoraqalpoq gilamlari (O'zbekiston) kabi mahsulotlar GK hisoblanadi.

WIPO geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish uchun turli xalqaro huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqadi va qo'llab-quvvatlaydi. Muhim xalqaro shartnomalar quyidagilardir:

1. Parij Konvensiyasi (1883)

Parij Konvensiyasi sanoat mulki himoyasi bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlardan biri bo'lib, geografik ko'rsatkichlar va noto'g'ri belgilanishga qarshi himoyani nazarda tutadi. Parij Konvensiyasi sanoat mulkini xalqaro miqyosda himoya qilish uchun tuzilgan bo'lib, geografik ko'rsatkichlarni ham muhofaza qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu konvensiya doirasida ishtirokchi davlatlar o'z hududida muayyan geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish majburiyatini oladi. Shuningdek, Intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga oid ilk xalqaro bitimlardan biri bo'lib, u adashuvga olib keluvchi yoki noto'g'ri ma'lumot beruvchi geografik ko'rsatkichlarni taqiqlaydi.

2. Lissabon Shartnomasi (1958)

Lissabon Shartnomasi kelib chiqish nomlarini xalqaro darajada himoya qilish uchun qabul qilingan. Ushbu shartnoma mahsulotlarning kelib chiqishi bilan bog'liq nomlarni taqlid va noqonuniy foydalanishdan himoya qiladi. 2020-yilda qabul qilingan Jeneva Bitimi Lissabon tizimini yangilab, qamrovini kengaytirdi. Lissabon Bitimi geografik ko'rsatkichlarni xalqaro miqyosda himoya qilish bo'yicha maxsus kelishuv bo'lib, uning asosiy maqsadi ishtirokchi davlatlarda GKlarning muhofazasini ta'minlashdir. Bu bitimga qo'shilgan davlatlar o'z hududida muhofaza qilingan geografik nomlarni boshqa davlatlarda ham tan olinishini ta'minlaydi. (WIPO, Lisbon Agreement, www.wipo.int).

- Geografik ko'rsatkichlar va kelib chiqish joy nomlarini himoya qilishga bag'ishlangan.
- 2015-yilda yangilanib, "Lissabon tizimi" deb ataladigan yangi mexanizm joriy etildi.
- Ushbu tizim orqali bitta ariza bilan turli davlatlarda geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish mumkin.

3. TRIPS Bitimi (1994)

Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) tarkibidagi Intellektual mulk huquqlari savdoga aloqador jihatlari to'g'risidagi bitim (TRIPS) geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish bo'yicha eng muhim xalqaro hujjatlardan biridir. Savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari bo'yicha TRIPS bitimi Butunjahon Savdo Tashkiloti (BST) doirasida geografik ko'rsatkichlarni himoya qilishni tartibga soladi. Ushbu bitim barcha ishtirokchi davlatlardan geografik ko'rsatkichlarni milliy qonunchilik asosida himoya qilishni talab qiladi. (WTO, TRIPS Agreement, www.wto.org). Ushbu bitim GKlarning:

- Barcha tovarlarga umumiy himoyasini,
- Sharob va spirtli ichimliklar uchun maxsus himoyasini ta'minlaydi.
- Barcha JSTga a'zo davlatlar geografik ko'rsatkichlarni o'z qonunchiligida himoya qilishi shart.

- Oziq-ovqat va sharob mahsulotlari uchun kuchliroq himoya mexanizmi mavjud.

4. Madrid Bitimi va Protokoli

Madrid tizimi savdo belgilari va geografik ko'rsatkichlarni xalqaro miqyosda ro'yxatga olish imkonini beradi. Bu bitim geografik nomlarning noqonuniy ishlatilishining oldini olishga qaratilgan. (WIPO, Madrid System Overview, www.wipo.int)

WIPO tomonidan geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish

WIPOning Lissabon Tizimi orqali mamlakatlar geografik ko'rsatkichlarini birgalikda ro'yxatdan o'tkazishlari va boshqa ishtirokchi davlatlarda himoyaga ega bo'lishlari mumkin.

Geografik ko'rsatkichlarning muhimligi

- Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Tovarlarning noyobligini ta'minlash;
- Iste'molchilarni adashishdan saqlash;
- Soxta mahsulotlarga qarshi kurash.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, WIPO geografik ko'rsatkichlarni xalqaro darajada muhofaza qilish uchun muhim rol o'ynaydi. Lissabon Shartnomasi va TRIPS Bitimi kabi xalqaro hujjatlar bu muhofazani kuchaytiradi va mahalliy mahsulotlarning global bozorda o'ziga xosligini saqlashga yordam beradi.

YEVROPA ITTIFOQI GEOGRAFIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Yevropa Ittifoqida geografik ko'rsatkichlar uch turga bo'linadi:

•Muayyan kelib chiqish nomi (PDO) – mahsulot butunlay muayyan hududda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

•Geografik ko'rsatkich (PGI) – mahsulot ishlab chiqarish jarayonining kamida bir qismi muayyan hududda amalga oshirilishi lozim.

•An'anaviy xususiyatlarga ega mahsulot (TSG) – mahsulot an'anaviy usullar asosida tayyorlangan bo'lishi kerak. (European Commission, eAmbrosia Database, ec.europa.eu).

Yevropa Ittifoqi tizimi

•Yevropa Ittifoqi geografik ko'rsatkichlarni qat'iy tartibga soladi.

•PGI (Protected Geographical Indication – Himoyalangan geografik ko'rsatkich) va PDO (Protected Designation of Origin – Himoyalangan kelib chiqish joyi nomi) kabi toifalar mavjud.

Misol uchun, Champagne (Fransiya) – faqat Fransiyaning Champagne hududida ishlab chiqarilgan ichimlik shunday nomlanishi mumkin.

Roquefort (Fransiya) – faqat maxsus hududda yetishtirilgan sutdan tayyorlangan pishloq.

Yevropa Ittifoqi sifat siyosati o'ziga xos mahsulotlarning geografik kelib chiqishi va an'anaviy nou-xau bilan bog'liq noyob xususiyatlarini targ'ib qilish uchun ularning nomlarini himoya qilishga qaratilgan. Mahsulot nomlariga "geografik ko'rsatkich" berilishi mumkin, agar ular ishlab chiqarilgan joyga maxsus havolasi bo'lsa. GK tan olinishi iste'molchilarga sifatli mahsulotlarga ishonish va farqlash imkonini beradi, shu bilan birga ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini yaxshiroq sotishga yordam beradi. Ko'rib chiqilayotgan yoki GK tan olinishi berilgan mahsulotlar geografik ko'rsatkichlar registrlarida keltirilgan. Shuningdek, registrlarda har bir mahsulot uchun geografik va ishlab chiqarish spetsifikatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Intellectual mulk sifatida e'tirof etilgan geografik ko'rsatkichlar Yevropa Ittifoqi va boshqa mamlakatlar o'rtasidagi savdo muzokaralarida tobora muhim rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqining boshqa sifat sxemalari an'anaviy ishlab chiqarish jarayoni yoki tog'lar yoki orollar kabi qiyin tabiiy hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga urg'u beradi. Geografik ko'rsatkichlar sifatleri ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq bo'lgan aniq mahsulotlarga intellektual mulk huquqlarini belgilaydi.

Geografik ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

PDO - kelib chiqishining himoyalangan belgisi (oziq-ovqat va vino)

PGI - himoyalangan geografik ko'rsatkich (oziq-ovqat va vino)

GI - geografik ko'rsatkich (spirtli ichimliklar).

Yevropa Ittifoqining geografik ko'rsatkichlari tizimi muayyan hududlardan kelib chiqqan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoki ishlab chiqarish hududi bilan bog'liq obro'ga ega bo'lgan mahsulotlarning nomlarini himoya qiladi. PDO va PGI o'rtasidagi farqlar, birinchi navbatda, mahsulot xomashyosining qancha qismi ushbu hududdan kelishi kerakligi yoki ishlab chiqarish jarayonining qancha qismi ma'lum bir mintaqada amalga oshirilishi kerakligi bilan bog'liq. GI spirtli ichimliklar uchun xosdir.

Himoyalangan kelib chiqishi belgisi (PDO)

PDO sifatida ro'yxatga olingan mahsulot nomlari ular ishlab chiqarilgan joyga eng kuchli aloqaga ega bo'lganlardir. Bunda asosan, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va vinolar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyorlash jarayonining har bir qismi ma'lum bir mintaqada amalga oshirilishi kerak. Sharoblar uchun bu uzum faqat sharob ishlab chiqarilgan geografik hududdan kelishi kerakligini anglatadi. Misol tariqasida Kalamata zaytun moyini keltirishimiz mumkin, u PDO butunlay Gretsiyaning Kalamata viloyatida ishlab chiqariladi, bu hududdagi zaytun navlaridan foydalanadi. Ushbu mahsulotlarning yorliqlarida, ya'ni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun majburiy, vino uchun ixtiyoriy holda geografik ko'rsatkich nomi keltirilishi lozim.

Himoyalangan geografik ko'rsatkich (PGI)

PGI o'ziga xos geografik mintaq va mahsulot nomi o'rtasidagi munosabatni ta'kidlaydi, bu yerda ma'lum sifat, obro' yoki boshqa xususiyat uning geografik kelib chiqishi bilan bog'liq. Bunda ham PDO kabi oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va vinolar ishlab chiqarilishini o'z ichiga oladi, shuningdek, ko'pgina mahsulotlar uchun ishlab chiqarish, qayta ishlash yoki tayyorlash bosqichlaridan kamida bittasi mintaqada amalga oshiriladi. Sharobga kelsak, bu shuni anglatadiki, ishlatiladigan uzumning kamida 85% faqat sharob ishlab chiqarilgan geografik hududdan olinishi kerak. Misol uchun, Westfälischer Knochenschinken PGI jambon Vestfaliyada qadimiy usullardan foydalangan holda ishlab chiqariladi, ammo ishlatiladigan go'sht faqat Germaniyaning o'ziga xos mintaqasida tug'ilgan va o'stirilgan hayvonlar hisoblanadi.

Spirtli ichimliklarning geografik ko'rsatkichi (GI)

GI mahsulotning o'ziga xos sifati, obro'si yoki boshqa xususiyatlari asosan uning geografik kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan mamlakat, mintaq va yoki hududda ishlab chiqarilgan spirtli ichimlik nomini himoya qiladi. Ushbu tur faqatgina spirtli ichimliklarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ko'pgina mahsulotlar uchun distillash yoki tayyorlash bosqichlaridan kamida bittasi mintaqada amalga oshiriladi. Biroq, xom-ashyoning mintaqadan kelishi chiqishi shart emas. Irish viski Giga misol bo'la oladi, u Irlandiyada 6-asrdan beri pishirilgan, distillangan va yetuk qilingan, ammo xom ashyo faqat Irlandiyadan kelmasdan, balki boshqa hududlardan ham keltiriladi.

An'anaviy mutaxassislik kafolatlangan (TSG) logotipi

An'anaviy ixtisoslik kafolati (TSG) ma'lum bir geografik hududga bog'lanmagan holda mahsulotning ishlab chiqarish usuli yoki uning tarkibi kabi an'anaviy jihatlarni ta'kidlaydi. TSG sifatida ro'yxatga olingan mahsulot nomi uni soxtalashtirish va noto'g'ri foydalanishdan himoya qiladi. Bu asosan, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Bu

turga misol tariqasida Gueuze TSGni keltirilishimiz mumkin, bu spontan fermentatsiya natijasida olingan an'anaviy pivo. Odatda Belgiyaning Bryussel va uning atrofida ishlab chiqariladi. Shunga qaramay, TSG sifatida uning ishlab chiqarish usuli himoyalangan, ammo uni boshqa joyda ishlab chiqarish mumkin.

Yevropa Ittifoqining intellektual mulk huquqlari tizimining bir qismi sifatida, GI sifatida ro'yxatdan o'tgan mahsulotlar nomlari Yevropa Ittifoqida va maxsus himoya shartnomasi imzolangan Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarda taqlid va noto'g'ri foydalanishdan qonuniy himoyalangan.

Barcha sifat sxemalari uchun har bir Yevropa Ittifoqi davlatining vakolatli milliy organlari o'z hududida ro'yxatga olingan nomlarni himoya qilish uchun zarur choralarni ko'radi. Shuningdek, ular bunday nomdan foydalangan holda mahsulotlarni noqonuniy ishlab chiqarish yoki sotishning oldini olishlari va to'xtatishlari kerak.

Yevropa bo'lmagan mahsulot nomlari, agar ularning kelib chiqqan mamlakati Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama yoki mintaqaviy kelishuvga ega bo'lsa, bu nomlarni o'zaro himoya qilishni o'z ichiga olgan holda, GI sifatida ro'yxatdan o'tishi mumkin.

Kolumbiya yoki Janubiy Afrika kabi Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi bir qancha mamlakatlarda ishlab chiqarilgan turli xil mahsulotlar (sharob, oziq-ovqat va spirtli ichimliklar) nomlari himoyalangan.

Ittifoq registrlarida so'ralgan va kiritilgan Gilar bilan eAmbrosia (Yevropa Ittifoqi GI registrlarining rasmiy ma'lumotlar bazasi), kelishuvlar bo'yicha himoyalangan ham Yevropa Ittifoqi, ham Elga kirmaydigan Gilar bilan GIview portalida maslahatlashish mumkin.

Yevropa Ittifoqida (YI) geografik ko'rsatkichlarning (Geographical Indications – GIs) muhofaza qilinishi mahsulotlarning kelib chiqishi, sifati va an'anaviy ishlab chiqarish usullarini himoya qilishga qaratilgan. Bu tizim iste'molchilarni chalg'ituvchi soxta mahsulotlardan himoya qiladi va ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarining noyobligini saqlab qolish imkonini beradi.

Geografik ko'rsatkichlarning ahamiyati

- Mahsulot sifatini kafolatlaydi: Muayyan hududda ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati va an'anaviy usulda tayyorlanganligi tasdiqlanadi.

- Iqtisodiy manfaat keltiradi: Mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini yuqori narxda sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- Madaniy merosni asrashga yordam beradi: An'anaviy ishlab chiqarish usullari saqlanib qoladi va avloddan-avlodga o'tadi.

- Iste'molchilarni himoya qiladi: Soxta yoki past sifatlil mahsulotlarning bozorda tarqalishining oldini oladi.

Geografik ko'rsatkichlar muhofazasi va qonunchilik

YI geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy qonunlarga ega:

- (EU) No 1151/2012 reglamenti – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun.

- (EU) No 1308/2013 reglamenti – vino mahsulotlari uchun.

- (EU) No 110/2008 reglamenti – spirtli ichimliklar uchun.

Yevropa Komissiyasi ro'yxatga olingan geografik ko'rsatkichlarni eAmbrosia bazasida yuritadi.

CHET ELDA GEOGRAFIK BELGILARNI HIMOYA QILISH

GI huquqlari hududiydir, ya'ni bu huquqlar himoya berilgan mamlakat yoki mintaqa bilan cheklangan

Chet elda GIni himoya qilishning uchta asosiy usuli mavjud:

Milliy va mintaqaviy yo'nalishlar

Ba'zi davlatlar boshqa davlatning Gllarini ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar asosida tan oladi va himoya qiladi. Ushbu shartnomalar barcha Gllarga taalluqli bo'lishi mumkin yoki ayrim iqtisodiy tarmoqlar yoki mahsulotlar bilan cheklanishi mumkin, masalan. sharob va spirtli ichimliklar.

Tovar kelib chiqqan joy va geografik ko'rsatkichlarni xalqaro ro'yxatga olish Lissabon tizimi geografik ko'rsatkich yoki tovar kelib chiqqan joy nomi uchun himoya olishning soddalashtirilgan va qulay vositalarini taklif etadi. Yagona ro'yxatga olish tartibi va bir to'lovlar to'plami orqali himoyani Lissabon tizimi qamrab olgan boshqa mamlakatlarda (va hukumatlararo tashkilotlar, masalan, Yevropa Ittifoqi) olish mumkin .

Geografik ko'rsatkich huquqi ko'rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahsuloti amaldagi standartlarga mos kelmaydigan uchinchi shaxs tomonidan foydalanishning oldini olish imkonini beradi. Masalan, Darjeeling geografik ko'rsatkichi himoyalangan yurisdiksiyalarda Darjeeling choyi ishlab chiqaruvchilari o'zlarining choy bog'larida yetishtirilmagan yoki amaliyot kodeksida belgilangan standartlarga muvofiq ishlab chiqarilmagan choy uchun "Darjeeling" atamasidan foydalanishni istisno qilishlari mumkin.

Biroq, himoyalangan geografik ko'rsatkich imkon bermaydi ushlagich kimningdir xuddi shu tarzda mahsulot ishlab chiqarishiga yo'l qo'ymaslik uchun ushbu ko'rsatkich uchun standartlarda belgilangan texnikalar. Geografik ko'rsatkich uchun himoya odatda tomonidan olinadi ko'rsatkichni tashkil etuvchi belgi ustidan huquqni olish.

Geografik ko'rsatkichlarni xalqaro darajada muhofaza qilishda bir qancha qiyinchiliklar mavjud:

- Har xil huquqiy tizimlar – har bir davlatda geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud.

- Noqonuniy foydalanish – ba'zi mamlakatlarda mashhur geografik nomlardan noqonuniy foydalanish davom etmoqda.

- Muvofiqlashtirish muammolari – turli xalqaro bitimlar va tashkilotlar o'rtasida to'liq muvofiqlashtirish yo'q.

Xulosa o'rmida shuni aytishimiz mumkinki, Geografik ko'rsatkichlar xalqaro savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni himoya qilish uchun turli xalqaro bitimlar mavjud. TRIPS bitimi, Lissabon tizimi va Yevropa Ittifoqi tartib-qoidalari bu borada eng muhim mexanizmlar hisoblanadi. O'zbekiston ham geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish bo'yicha o'z tizimini rivojlantirmoqda.

Lissabon tizimi bilan xalqaro miqyosda geografik ko'rsatkichlar va kelib chiqish nomini qanday himoya qilish kerak

Tovar kelib chiqqan joy va geografik ko'rsatkichlarni xalqaro ro'yxatga olish Lissabon tizimi geografik ko'rsatkich yoki tovar kelib chiqqan joy nomi uchun himoya olishning soddalashtirilgan va qulay vositalarini taklif etadi. Yagona ro'yxatga olish tartibi va bir to'lovlar to'plami orqali himoyani Lissabon tizimi qamrab olgan boshqa mamlakatlarda (va hukumatlararo tashkilotlar, masalan, Evropa Ittifoqi) olish mumkin.

WIPO Lissabon tizimi sizning geografik ko'rsatkichlaringizni va kelib chiqish manzillarini himoya qilishning sakkizta usuli

Yagona dastur

Lissabon tizimi tovar kelib chiqqan joyingiz yoki geografik ko'rsatkichingizni tan olish va uni ko'plab mamlakatlarda himoya qilishning qulay va tejamkor usuli hisoblanadi. Bunga bitta dastur orqali erishish mumkin.

Himoyani kengaytirish uchun moslashuvchanlik

Himoyaning geografik doirasi Lissabon tizimiga kiritilgan yangi a'zolarga (davlatlar yoki hukumatlararo tashkilotlar) (keyingi) rasmiy belgilanmagan holda kengaytirilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv

Lissabon tizimi sizning geografik ko'rsatkichingiz yoki tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha markaziy boshqaruvni taklif etadi - bitta tilda, bir to'lovlar to'plami va minimal rasmiyatchiliklar bilan. Lissabon tizimidan foydalanib, siz Lissabon tizimi qamrab olgan 50 dan ortiq mamlakatlarda potensial ravishda himoya olishingiz mumkin.

Cheksiz himoya

Lissabon tizimida ro'yxatga olingan tovar kelib chiqqan joy nomi yoki geografik ko'rsatkich, agar u tovar kelib chiqqan Ahdlashuvchi tomonida (mamlakat yoki hukumatlararo tashkilot) himoyalangan bo'lsa, o'z kuchini saqlab qoladi. Yangilash talablari va yangilash to'lovlari yo'q.

Barcha mahsulot toifalari himoyalangan bo'lishi mumkin

Lissabon tizimining a'zolari o'zlarining kelib chiqish joylari va geografik ko'rsatkichlari uchun, ular qo'llaniladigan tovarlarning xususiyatidan qat'i nazar, tizimning boshqa a'zolarida samarali himoya olishlari mumkin.

Onlayn vositalar

Lissabon tizimi WIPOning Lisbon Express ma'lumotlar bazasi va byulleteni orqali Xalqaro reestrda ro'yxatdan o'tgan geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida dolzarb ma'lumotlarni taqdim etuvchi onlayn vositalarni taklif etadi.

Butun dunyo bo'ylab himoya

Lissabon tizimining global qamrovi doimiy ravishda kengayib bormoqda, bu sizga tobora ortib borayotgan mamlakatlarda o'zingizning geografik ko'rsatkichlaringizni va kelib chiqish manzilingizni himoya qilish imkonini beradi.

Lissabon tizimi va geografik ko'rsatkichlarni himoya qilish

Lissabon tizimi — bu kelib chiqish nomlarini (Appellations of Origin) va geografik ko'rsatkichlarni (GIs) xalqaro darajada muhofaza qilish uchun yaratilgan xalqaro ro'yxatga olish va himoya qilish tizimi. Ushbu tizim Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan boshqariladi va a'zo davlatlarga o'z mahsulotlarini himoya qilish uchun qulay mexanizmni taqdim etadi. Lissabon tizimi 1958-yilda Lissabon kelishuvi bilan yaratilgan. Ushbu kelishuv mahsulotlarning kelib chiqish nomlarini xalqaro miqyosda himoya qilish maqsadida imzolangan. Keyinchalik, 2015-yilda Jeneva bitimi qabul qilindi va bu tizimga geografik ko'rsatkichlarni ham kiritish imkoniyati yaratildi. Hozirda Lissabon tizimiga 50 dan ortiq davlat a'zo bo'lib, ularga Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrikaning turli mamlakatlari kiradi. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari hozircha Lissabon tizimiga a'zo emas, lekin manfaatdor tomon sifatida qaralishi mumkin.

Lissabon tizimi orqali bir davlatda ro'yxatdan o'tgan kelib chiqish nomlari yoki geografik ko'rsatkichlar tizimga a'zo bo'lgan boshqa davlatlarda ham himoyaga ega bo'ladi. Tizim quyidagi asosiy tamoyillar asosida ishlaydi:

1. Mamlakat ichki ro'yxatdan o'tkazish:

oGeografik ko'rsatkich yoki kelib chiqish nomi oldin milliy darajada ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

2. WIPOga ariza yuborish:

oRo'yxatdan o'tgan nom uchun WIPO huzuridagi Xalqaro byuroga ariza topshiriladi.

3. Xalqaro ro'yxatdan o'tish:

oWIPO tomonidan tekshirilganidan keyin ushbu nom barcha a'zo davlatlarda rasmiy himoyaga ega bo'ladi.

4. A'zo davlatlarning e'tirozi:

oA'zo davlatlar ushbu ro'yxatdan o'tgan nomga qarshi e'tiroz bildirishlari mumkin.

5. Himoya muddati:

oRo'yxatdan o'tgan nom cheksiz muddatga himoya qilinadi, lekin davriy ravishda tasdiqlanib borishi kerak.

Lissabon tizimining afzalliklariga to'xtaladigan bo'lsak, u geografik ko'rsatkichlarga xalqaro himoya taqdim etadi.

Bir martalik ro'yxatga olish bilan ko'plab davlatlarda muhofaza o'rnatish imkonini beradi. Mahsulotlarni soxtalashtirish va noto'g'ri ishlatilishiga qarshi kurashadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni oshiradi.

Lissabon tizimining kamchiliklari: Barcha davlatlar ushbu tizimga a'zo emas. Boshqa tizimlar bilan taqqoslaganda qamrovi torroq (masalan, TRIPS bitimi). Har bir a'zo davlatda e'tiroz berish imkoniyati mavjud, bu esa muayyan mahsulotlarni himoya qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

XULOSA

Geografik ko'rsatkichlar xalqaro miqyosda muhim iqtisodiy va madaniy rol o'ynaydi. Ularning samarali muhofaza qilinishi iste'molchilar huquqlarini himoya qiladi, ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi va mahsulot sifatini kafolatlaydi. Shu sababli, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va huquqiy tizimlarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Lissabon tizimi geografik ko'rsatkichlarni xalqaro darajada himoya qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. Uning Jeneva bitimi bilan yangilanishi himoya doirasini kengaytirib, ko'proq davlatlar va mahsulotlar uchun manfaatli bo'lishiga yo'l ochdi. Ushbu tizimga a'zo bo'lish mamlakatlar uchun o'z mahsulotlarini xalqaro bozorda himoya qilish va ularga bo'lgan ishonchni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-24925>
2. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5889882>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamnetini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6110887>
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-180552>

5. Xalqaro intellektual mulk huquqi. [Matn] o'quv qo'llanma Yakubova Iroda Bahramovna. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 224 b.
6. WIPO – World Intellectual Property Organization (www.wipo.int)
7. WTO – World Trade Organization (www.wto.org)
8. European Commission eAmbrosia Database (ec.europa.eu)

